

# Fuqarolar xotirjamligi yo'lida



Fuqarolar xotirjamligi yo'lida

Bugungi kunda Milliy gvardiya Qo'riqlash bo'linmalari xodimlari tomonidan ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatini yanada yaxshilash, o'zgarar mulkiga daxl qilish, o'g'irlik va talonchilik kabi jinoyatlarning oldini olish bo'yicha hududlarda, mahallalarda, ta'lim muassasalarida, aholi o'rtasida muntazam ravishda targ'ibot va tashviqot tadbirlari o'tkazilib kelinmoqda.

Jumladan, kuni kecha Termiz shahrida "Abdulla Avloniy" mahalla fuqarolar yig'inidagi ko'p qavatli uylar atrofi hamda tadbirkorlik sub'yektlarida navbatdagi ana shunday profilaktik ishlar tashkil etildi.

Uchrashuv davomida fuqarolarga "Xavfsiz hudud", "Xavfsiz xonadon" konsepsiyasining ahamiyati, mol-mulk dahlsizligini ta'minlashda qo'riqlash bo'linmalarining afzalliklari xususida batafsil to'xtalib o'tildi.

Xonadon va savdo do'konini qo'riqlovga topshirish istagini bildirgan fuqarolarga

qo'riqlovga olishning tartiblari, shartnoma asosida qo'riqlanishi, signalizasiya vositalari bepul o'rnatilgan holda xizmat ko'rsatilishi haqida tushunchalar berildi.

Xizmatning texnik qo'riqlash markazi faoliyati, o'rnatilayotgan integrallashgan yangi tipdagi texnik qurilmalarning ustunliklari tushuntirildi.

Image not found or type unknown



Image not found or type unknown




Image not found or type unknown



Image not found or type unknown



Image not found or type unknown



Image not found or type unknown





Image not found or type unknown

